



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY MASALALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Ibragimova Nozima Ulug'bekovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchi

ORCID: 0009-0005-5745-6599

Pardayeva Hosila Qudratulla qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanishning ta'limiy samaradorligi nazariy va uslubiy jihatdan tahlil qilingan. Kirish qismida mantiqiy masalalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda muammoni yechish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Metodlar bo'limida 1–4-sinflar matematika darslarida qo'llaniladigan mantiqiy masalalarning mazmuni, turlari va ularni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish usullari yoritilgan. Natijalar qismida nazariy tahlil asosida mantiqiy masalalar o'quvchilarning bilish faolligini oshirishi, darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishi hamda fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qilishi aniqlangan. Muhokama bo'limida olingan xulosalar zamonaviy pedagogik adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, boshlang'ich sinf matematika ta'limida mantiqiy masalalardan tizimli foydalanish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim didaktik omil ekanini ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, matematika darslari, mantiqiy masalalar, mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash, muammoni yechish, bilish faolligi, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article presents a theoretical and methodological analysis of the effectiveness of using logical problems in primary school mathematics lessons. The introduction substantiates the importance of logical problems in developing logical thinking, independent reasoning, and problem-solving skills among primary school students. The Methods section describes the content, types, and effective instructional integration of logical problems used in mathematics lessons for grades 1–4. The Results indicate that logical problems enhance students' cognitive activity, increase interest in learning, and stimulate thinking processes. In the Discussion section, the findings are compared with contemporary pedagogical literature, confirming that the systematic use of logical problems is a significant didactic factor in improving the effectiveness of primary mathematics education.

Key words: primary school, mathematics lessons, logical problems, logical thinking, independent reasoning, problem solving, cognitive activity, educational effectiveness.

Аннотация: В статье представлен теоретико-методический анализ эффективности использования логических задач на уроках математики в начальных классах. Во введении обоснована значимость логических задач в формировании логического мышления, самостоятельности и навыков решения проблем у младших школьников. В разделе “Методы” раскрываются содержание, виды логических задач, применяемых на уроках математики в 1–4 классах, а также способы их эффективной интеграции в учебный процесс. В разделе “Результаты” на основе теоретического анализа установлено, что логические задачи способствуют повышению познавательной активности учащихся, усилению интереса к обучению и активизации мыслительной деятельности. В разделе “Обсуждение” полученные выводы сопоставляются с современными педагогическими исследованиями, что позволяет научно обосновать целесообразность систематического применения логических задач в начальном математическом образовании.

Ключевые слова: начальные классы, уроки математики, логические задачи, логическое мышление, самостоятельное мышление, решение проблем, познавательная активность, эффективность обучения.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf matematika darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda nafaqat hisoblash ko'nikmalarini, balki mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda muammoni yechish qobiliyatlarini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning fikrlash faoliyati keyingi



ta'lim jarayonining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli matematika darslarida o'quvchilarning aqliy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mantiqiy masalalar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mantiqiy masalalar o'quvchilardan tayyor algoritmlarni qo'llashni emas, balki vaziyatni anglash, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda noan'anaviy yechimlarni izlashni talab etadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ va tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf matematika darsliklarida beriladigan mantiqiy masalalar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, ularni darsga qiziqtirish, faol ishtirokini ta'minlash hamda mustaqil fikrlashga yo'naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mantiqiy masalalardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning matematik nutqini rivojlantirish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda muammoni yechish strategiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf matematika ta'limida mantiqiy masalalardan foydalanish masalasi pedagogika va matematika o'qitish metodikasi sohasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda muammoni yechish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi ^[1]. Shu nuqtayi nazardan, matematika darslarida mantiqiy masalalar samarali didaktik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda mantiqiy masalalar o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi fikrlash amallarini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Xususan, boshlang'ich ta'limga oid metodik manbalarda mantiqiy masalalarning o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi, dars jarayonida ularni bosqichma-bosqich qo'llash muhimligi ko'rsatib o'tiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlarda mantiqiy masalalar muammoli vaziyat yaratish, o'quvchini faol fikrlashga undash hamda matematik bilimlarni ongli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida talqin etiladi ^[2]. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, matematika ta'limiga oid tadqiqotlarda mantiqiy masalalar o'quvchilarning matematik nutqini rivojlantirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va muammoni yechish strategiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi ^[3]. Tahlil qilingan adabiyotlar mantiqiy masalalardan foydalanish masalasi ilmiy jihatdan asoslanganligini ko'rsatsa-da, ularni boshlang'ich sinf matematika darslarida metodik jihatdan tizimli qo'llash masalasi dolzarb bo'lib qolayotganini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish orqali o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilib qo'yildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, didaktik modellash, mantiqiy masalalar yechimini tahlil qilish hamda pedagogik kuzatuv usullariga tayangan holda olib borildi ^[1].

Tadqiqot jarayonida 2–4-sinflar matematika kursida o'rganiladigan arifmetik amallar, tenglik va tengsizliklar, vaqt, masofa, miqdor hamda mantiqiy bog'lanishlarga oid masalalar tanlab olinib, ular fanlararo integratsiya asosida ishlab chiqildi. Masalalar kundalik hayotiy vaziyatlarga tayangan holda tuzilib, o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish faoliyatini faollashtirishga yo'naltirildi ^[4].

1-masala. G'amlangan yem otning bir o'ziga 20 kunga, sigirning bir o'ziga 30 kunga, toychoqning bir o'ziga 60 kunga yetadi. Ot, sigir va toychoq ushbu yemni birgalikda yesa, yem necha kunga yetadi?

G'amlangan yem:

- otga 20 kunga,
- sigirga 30 kunga,
- toychoqqa 60 kunga yetadi.

Agar ot, sigir va toychoq yemni birgalikda yesa, yem necha kunga yetadi?

Tasavvur qilaylik, bir xil miqdordagi yem mavjud. Ot uni 20 kunda, sigir 30 kunda, toychoq esa 60 kunda tugatadi. Dorskaga uchta teng to'rtburchak chiziladi (bitta yemni ifodalaydi). Eng qulay bo'laklash usuli sifatida yem 60 ta teng bo'lakka bo'linadi.



Shunda:

- ot bir kunda 3 bo'lak,
- sigir bir kunda 2 bo'lak,
- toychoq bir kunda 1 bo'lak yem yeydi.

Bir kunda birgalikda $1 + 2 + 3 = 6$ bo'lak yem yeyiladi. Yem jami 60 bo'lakdan iborat bo'lgani uchun $60 : 6 = 10$ kun.

Demak, ot, sigir va toychoq yemni birgalikda yesa, yem 10 kunga yetadi.

2-masala. Yozuvi o'ngdan chapga ham, chapdan o'ngga ham bir xil o'qiladigan so'z yoki son palindrom deb ataladi. 25952 sonidan oldingi va keyingi palindrom sonlar qaysilar? ^[5]

Yechish. Palindrom sonlar ko'zgudagi aksga o'xshaydi: sonning boshi oxiri bilan, ichki raqamlari esa o'zaro mos keladi. 25952 sonining tuzilishiga e'tibor beramiz. Bu yerda:

- 1-raqam 5-raqamga teng (2 va 2),
- 2-raqam 4-raqamga teng (5 va 5),
- markazda esa 9 raqami joylashgan.

Oldingi palindrom son. Oldingi palindromni topish uchun markazdagi raqam 1 ga kamaytiriladi, qolgan raqamlar o'zgarmaydi. Natijada 25852 – 25952 dan oldingi palindrom son hosil bo'ladi.

Keyingi palindrom son. Keyingi palindromni topish uchun markazdagi raqam 1 ga oshiriladi. Biroq markazda 10 bo'lishi mumkin emasligi sababli birlik tashqi juftliklarga o'tadi. Natijada markaz 0 bo'ladi, tashqi qism esa 259 dan 260 ga oshadi. Shunday qilib, 26062 – 25952 dan keyingi palindrom son hisoblanadi.

3-masala. Sentabr oyining birinchi yarmining o'rtasi seshanba kuniga to'g'ri keladi. Sentabr oyining ikkinchi yarmining o'rtasi haftaning qaysi kuniga to'g'ri keladi? ^[6]

Yechish. Sentabr oyi 30 kundan iborat. Birinchi yarmi 1–15-sentabr kunlarini qamrab oladi. Uning o'rtasi 8-sentabr bo'lib, u seshanba kuniga to'g'ri keladi. Ikkinchi yarmi 16–30-sentabr kunlarini o'z ichiga oladi. Ushbu davrning o'rtasi 23-sentabrga to'g'ri keladi. Ma'lumki, 8-sentabr, 15-sentabr va 22-sentabr kunlari seshanba bo'ladi. Shunday ekan, 23-sentabr chorshanba kuniga to'g'ri keladi.

4-masala. Fermadagi tovuq va qo'ylarning boshlari soni 90 ta, oyoqlari soni esa 240 ta. Fermada nechta tovuq va nechta qo'y bor?

Masala sxemasi:

- boshlari: 90 ta,
- oyoqlari: 240 ta.

1-usul. Agar fermadagi barcha hayvonlarni tovuq deb faraz qilsak, $90 \times 2 = 180$ ta oyoq bo'lar edi. Oyoqlar sonidagi farq $240 - 180 = 60$ ta bo'lib, bu qo'ylarning ortiqcha oyoqlari hisoblanadi.

$60 : 2 = 30$ ta qo'y, $90 - 30 = 60$ ta tovuq aniqlanadi.

2-usul. Agar fermadagi barcha hayvonlarni qo'y deb faraz qilsak, $90 \times 4 = 360$ ta oyoq bo'lar edi. Oyoqlar sonidagi farq $360 - 240 = 120$ ta bo'lib, bu tovuqlarning ortiqcha oyoqlari hisoblanadi. $120 : 2 = 60$ ta tovuq, $90 - 60 = 30$ ta qo'y aniqlanadi.

3-usul (algebraik usul). Fermadagi qo'ylar sonini x deb olsak, ularning oyoqlari $4x$ ga teng bo'ladi. Tovular soni $90 - x$ bo'lib, ularning oyoqlari $2(90 - x)$ ga teng.

Tenglama tuzamiz:

$$4x + 2(90 - x) = 240$$

$$2x + 180 = 240$$

$$2x = 60$$

$$x = 30$$

Demak, fermada 30 ta qo'y va 60 ta tovuq mavjud.

Tadqiqot davomida mantiqiy masalalar tayyor algoritmlar asosida emas, balki masala shartini chuqur tahlil qilish, fanlararo bog'lanishlarni aniqlash va bir nechta yechim variantlarini muhokama qilish orqali yechildi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda samarali natija berdi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash faoliyatini faollashtirishi aniqlandi. Hayotiy vaziyatlarga asoslangan, ko'rgazmali va tahlilni talab qiluvchi masalalar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, ularning mustaqil fikr yuritishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, mantiqiy masalalar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda masala shartini tushunish, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko'nikmalari bosqichma-bosqich rivojlandi. Ayniqsa, bir masalani bir nechta usulda yechish imkoniyati o'quvchilarning kreativ yondashuvini kuchaytirdi (1-jadval).

1-jadval: Masala turlari bo'yicha o'quvchilarning faollik darajasi (foizlarda)

Masala turlari	Faollik darajasi (%)
Birgalikda bajariladigan ishga oid masalalar	88
Son tuzilishiga (palindrom) oid masalalar	82
Vaqt va sana bilan bog'liq masalalar	75
Boshlari va oyoqlari soniga oid masalalar	90

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kundalik hayot bilan bog'liq va ko'rgazmali yechimga ega masalalar o'quvchilar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilingan. Xususan, fermadagi hayvonlarga oid masala eng yuqori faollikni ta'minlagan (2-jadval).

2-jadval: Masalalarni yechishda qo'llaniladigan usullar (foizlarda)

Yechish usullari	Ulushi (%)
Ko'rgazmali (bo'laklash, chizma)	85
Mantiqiy mulohaza	78
Taqqoslash va faraz qilish	73
Algebraik usul	40

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kundalik hayot bilan bog'liq va ko'rgazmali yechimga ega masalalar o'quvchilar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilingan. Xususan, fermadagi hayvonlarga oid masala eng yuqori faollikni ta'minlagan.

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur turdagi masalalar o'quvchilarning tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi fikrlash amallarini faollashtiradi [7].

Xususan, yemga oid birinchi masalada o'quvchilar miqdorlarni bo'laklash va birlik vaqt ichida bajariladigan ish hajmini aniqlash orqali mantiqiy mushohada yuritishga o'rgandilar. Vizual modellashdan foydalanish masalaning mazmunini anglashni osonlashtirib, o'quvchilarning sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Bu holat mantiqiy masalalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos va samarali ekanligini tasdiqlaydi [8].

Palindrom sonlarga oid ikkinchi masala o'quvchilarning son tuzilishini tahlil qilish va simmetriya elementlarini anglashiga xizmat qildi. Masalani yechish jarayonida o'quvchilar faqat tayyor algoritmgaga amal qilish bilan cheklanmay, balki sonlar ichki tuzilishini mustaqil ravishda tahlil qildilar. Bu esa matematik tafakkur bilan bir qatorda kreativ yondashuvning shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Olingan natijalar mantiqiy masalalarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [9].

Vaqt tushunchasiga oid uchinchi masala real hayotiy vaziyat asosida tuzilgan bo'lib, o'quvchilarning ketma-ketlik va davriylikni anglash ko'nikmalarini mustahkamladi. Haftaning kunlarini sanalar bilan bog'lash orqali o'quvchilar matematik bilimlarni kundalik hayot bilan integratsiyalash imkoniga ega bo'ldilar. Bu esa fanlararo bog'liqlikni ta'minlashda mantiqiy masalalarning samaradorligini namoyon etdi [8].

Tovuq va qo'ylarga oid to'rtinchi masalada bir muammoni bir nechta usulda yechish imkoniyati yaratilgani o'quvchilarning moslashuvchan fikrlashini rivojlantirdi. Arifmetik va mantiqiy taxmin usullari bilan bir qatorda algebraik usuldan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini tenglama tushunchasiga bosqichma-bosqich tayyorlashga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'p usullilikka asoslangan masalalar o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.



Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda ayrim metodik cheklovlarni ham hisobga olish zarur. Xususan, mantiqiy masalalarning samaradorligi ularning o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos tanlanishiga, shuningdek, o'qituvchining metodik mahoratiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli kelgusida bunday masalalardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, muhokama natijalari mantiqiy masalalardan tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning bilish jarayoni, mantiqiy tafakkuri hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanini ko'rsatdi. Pedagogik kuzatishlar, diagnostik topshiriqlar va o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish asosida mantiqiy masalalar o'quvchilarning masalani tahlil qilish, sabab–oqibat bog'lanishlarini aniqlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini faollashtirishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning mustaqil yechim izlashga bo'lgan intilishi, o'z fikrini asoslab bayon etish qobiliyati hamda matematik nutqining rivojlanishi kuzatildi. Bu holat mantiqiy masalalar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy va reflektiv fikrlashni shakllantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar mantiqiy masalalarni boshlang'ich sinf matematika darslarida dars mazmuniga mos ravishda tanlash va qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga imkon berishini ko'rsatadi. Shu bois, mantiqiy masalalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim didaktik vosita sifatida tavsiya etiladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda mantiqiy masalalarning fanlararo integratsiya imkoniyatlari, raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unligi hamda o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan variantlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K., Matjonov S. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent, 2018.
2. Sobirova M. R. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2020.
3. Skemp R. The Psychology of Learning Mathematics. London: Routledge, 2016.
4. Yo'ldoshev J. Fanlararo integratsiya asoslari. Toshkent, 2019.
5. Repyova I. P. Matematika. 4-sinf, IV qism. Darslik. Toshkent: Novda, 2023.
6. Repyova I. P. Matematika. 3-sinf, I qism. Darslik. Toshkent: Novda, 2023.
7. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
8. Bikbayeva N. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
10. Ибрагимова Н. (2024). Математика ва физика fanlarini bevosita bog'lab o'qitishda interfaol metodlarning o'rni. Журнал универсальных научных исследований, 2(5), 1103–1110.
11. Ibragimova N. (2024). Matematika va fizika fanlarini o'zaro bog'lab o'qitishda matematik olimpiada va tanlovlarning o'rni. News of the NUUZ, 1(1.6), 83–85.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.